



Umumiy o’rta ta’lim maktablarida Informatika va axborot texnologiyalarini fanini  
o’qitishda bulut texnologiyalardan foydalanish.

Qo’qon dpi “Informatika” kafedrasи  
katta oq’ituvchisi t.f.n I.M.Siddiqov

Qo’qon dpi talaba, N.S.Ismoilova

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarining 10-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fanini o’qitishda zamonaviy ta’lim tenologiyalaridan foydalanish jumladan bulut texnologiyalar va ularning samarali natijalari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** Bulut texnologiya, zamonaviy ta’lim, elektron jadval, Dropbox, fayl, papka, matn, rasm.

Zamonaviy ta’lim tenologiyalaridan foydalanish hozirgi kunda ta’lim tizimida juda katta ahamiyatga ega. Shuningdek bulut tenologiyalari, blended learning(aratash ta’lim), kabi ta’lim texnologiyalari o’quvchilarni o’qitish jarayonini samarali olib borishda asosiy bo’g’inni tashkil etadi. Hozirgi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablarining raqamlashtirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko’rsatkichi umumiy holatda past natijani ko’rsatadi lekin, raqamlashtirilgan ta’lim texnologiyalaridan o’qitish jarayonida yuqori darajada foydalanish o’qituvchi va o’quvchilar uchun ham ta’lim jarayonini yuqori ko’rsatkichda olib borishligini ta’mindaydi.

Jumladan umumiy o’rta ta’lim maktablarining 10-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fanini bulut tenologiyalardan foydalanib olib borishligini ko’rib o’taylik. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 10-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fani jami yil davomida 68 soatni tashkil etadi va biz 1-chorakda o’tiladigan “Elektron jadvallar” bobini bulut texnologiyalardan foydalanib o’qitish jarayonini ko’rib o’tamiz. Xo’sh bulut texnologiyalar o’zi nima va ulardan qanday foydalanish mumkin. Bulutli texnologiyalar — bu ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari bo’lib, unda kompyuter resurslari Internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida taqdim etiladi. Bugungi kunda O’zbekiston ta’lim tizimini qayta ko’rib chiqish va isloh qilish zaruratiga duch kelmoqda. Ya’ni, ta’lim jarayonida zamonaviy odam bilim va ko’nikmalarni to’plashi kerak emas, balki mustaqil ravishda, boshqa odamlar bilan birgalikda mazmunli maqsadlarni qo’yishi, o’z-o’zini



tarbiyalash vaziyatlarini yaratishi, vositalarni izlash va ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, bu muammolarni hal qilish usullari hisoblanadi. Bulutli texnologiyalarning juda ko'p servis xizmatlari mavjud va bulardan eng ko'p tarqalgani Bulutli servislarning eng keng tarqalgani bu Dropbox – fayllarni saqlash xizmatidir. Quyida Dropbox tashqi xotiradan foydalanib 10-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fanida ma'lumotlarni bulutda saqlashni ko'rib o'tamiz. Buning uchun kompyuterimizda mavjud brovzer dasturining qidiruv tizimiga Dropbox.com nomini yozamiz va natijada quyidagi oyna ochiladi(1-rasm)

The screenshot shows the Dropbox web interface. On the left, there's a sidebar with links like 'Домашняя страница', 'Все файлы' (containing '402-ЮМ' and '403-ЮМ'), 'Последние', 'Помеченные', 'Фото', 'Подписи', 'Новинка', 'Общий доступ', 'Запросы файлов', and 'Удаленные файлы'. The main area shows a list of files: '403-ЮМ' (Dropbox), '402-ЮМ' (Dropbox), 'Без названия.paper' (Dropbox), and 'Untitled.paper' (Dropbox). Below this is a section for uploading files. To the right, there's a detailed view of a folder named '403-ЮМ' with two sub-items, both owned by 'Только вы' (Only you) and last modified on '11/03/2023 22:07'.

## 1- Dropbox dasturining asosiy oynasi.

Hosil bo'lgan oynadan Sozdat bandini tanlash orqali biz yangi fayl yoki papka hosil qilishimiz mumkin. Zagruzit bandi orqali kompyuterimizda mavjud taqdimot, jadval, rasm yoki matn ko'rinishidagi fayllarni yuklab olishimiz mumkin(2-rasm).

Ko'rib turganingizdek 10-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fanidan papka xosil qildik va uning ichiga 3.docx nomli matnli faylni joyladik. Qolgan mavzularni ham shunday ketma-ketlikda joylashtirish mumkin. Dropbox buluti texnologiyasi 32 Gb Dan 40 Gb gacha bepul xotiraga ega xisoblanadi va bundan foydalanib fanlardan topshiriqlarni va maruza matnlarni ham joylashtirib qo'yish mumkin.



2-rasm. Dropbox dasturida fayl va papka xosil qilish.

Foydalanuvchilar endi axbrotlarni saqlash va ulardan foydallanishda fleshka, disk, chiplardan foydalanishlari shart emas chunki bulut texnologiya bu muammolarning barchasini bir zumda xal qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.P., "Ta'limg metodlari" o'quv uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashiriyoti, Toshkent – 2017.
- Abduqodirov A.A., Tursunov S.O. Ta'limga axborot texnologiyalari. Pedagogika universitetli magistrantlari uchun darslik. T. "Adabiyot uchqunlari", 2019.- 340 b.
- Bobobekov Sh.R., "O'quv jarayonida foydalilanadigan bulutli tarmoq xizmatlarining funksional imkoniyatlari" Tafakkur ziyosil ilmiy-uslubiy journal. - 2022. - №1
- Delov T.E., "Bulutli texnologiyalar" o'quv qo'llanma. Toshkent 2020.
- Khakimova Yo.T. Tasks of distance learning in higher education institutions and pedagogical and psychological aspects os its organizarion. Galaxy international interdisciplinary research journal, p.263-267
- Xakimova Y.T., Pedagogical opportunities of distance education's didactic support in higher education institutions // American Journal of research. 2021.08.10, p. 1-4.
- Xakimova Yoqtuxon Toxirjon qizi. Stages of implementation of distance learning in higher education. Texas Journal of Philology. 2021.12.16 2770-8608, 38-39 b
- Mashxura, M., & Siddiqov, I. M. Z. (2023). Effects of the Flipped Classroom in Teaching Computer Graphics. *Eurasian Research Bulletin*, 16, 119-123.
- Siddiqov, I. M. (2023). SCRIBING-KELAJAK TEXNOLOGIYASI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).
- Melikuzievich, S. I. (2022). Providing The Integration of Modern Pedagogical and Information-Communication Technologies in Higher Education. *Texas Journal of Engineering and*



Technology, 15, 103-106. Melikuzievich, S. I. (2022). AN EFFECTIVE WAY TO PRESENT EDUCATIONAL MATERIALS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 224-229.

11. Meliqo'ziyevich, S. I. (2022). UMUMIY O 'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O 'QITISHDA RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 231-235.
12. Melikyzievich, S. I., Turdalievich, M. I., Shukurovich, M. S., & Mansurovich, Z. M. (2022). THE METHOD OF REFERENCE TESTS FOR THE DIAGNOSIS OF DIGITAL DEVICES. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
13. Siddiqov, I. M., & Igamberdiyev, U. R. (2021). PEDAGOGIKA OLIYGOHLARIDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKILLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1146-1163.
14. Siddikov, I. M. About Testing Digital Devices by Reference Tests. *JournalNX*, 7(06), 315-317.
15. Akbarov, U. Y., Rafiqov, F. Q., & Akbarov, S. (2022). MAPLE PROGRAM TO THE SOLUTION OF EQUATIONS REPRESENTING PROBLEMS OF HEAT DISPOSITION. *Open Access Repository*, 8(12), 230-240.
16. Rahmatullaev, M., Rafikov, F. K., & Azamov, S. K. (2021). Про конструктивні описи мір Гіббса для моделі Поттса на дереві Келі. *Ukrains'kyi Matematychnyi Zhurnal*, 73(7), 938-950.
17. Rahmatullaev, M. M., Rafikov, F. K., & Azamov, S. (2021). On the Constructive Description of Gibbs Measures for the Potts Model on a Cayley Tree. *Ukrainian Mathematical Journal*, 73(7).